Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlarining sifat va samaradorligini oshirishning nazariy hamda ilmiy asoslari	721
Esanov Muzaffar Xoshimovich	
Bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari	726
Eshmuminova Dilshoda Iskandarovna	
Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida pedagogik yondashuvlarning roli	730
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Arab xattotlik san'atining rivojlanishi.....	733
Mamarajabov Mirqosim Ramazon o'g'li	
Educational Effectiveness of the Question-and-Answer Technique in Working With English Texts	737
Muradulloyeva Sevinch Soxibjon qizi	
Boshlang'ich sinf matematika va geometriya darsliklarida STEAM yondashuvi asosida o'qitishning imkoniyatlari.....	740
Nazarova Shahzoda	
Boshlang'ich ta'lim o'quv jarayoniga sun'iy intellektni tatbiq etishning metodik asoslari (sinfidan tashqari ishlar misolida)	744
Nigmatullayeva Matluba Izatullo qizi	
Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'quvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari	748
Normaxmatov Ilhom Zayniddinovich	
Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatlari.....	751
Qurbonov Sanjar Rajabboyevich	
Sportchi salomatligini baholashda zamonaviy texnologiyalar.....	754
Samandarov A. X.	
Sport tashkilotlari uchun marketing, e-marketingning foydalari	758
Samatov Javlonbek Abdukayumovich	
Futbol o'yinlari orqali o'quvchilarda jismoniy tarbiya pedagogikasining ahamiyati	762
Sattarov Qarshiboy Norqulovich	
Kichik maktab yoshidagi bolalarda lingvistik kreativ intellektni shakllantirishning pedagogik shartlari	765
Shodiyev Rizamat Davronovich, Jabborova Maftuna Komil qizi	
Ota-onalar bilan samarali hamkorlikni tashkil etishda direktorning strategik yondashuvi.....	770
Tog'ayeva Shahnoza Shavkatovna	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa tinglash	774
Xodjayeva Nilufar Latipovna	
Talabalarda kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish orqali sog'lom fikrlarni shakllantirish masalasi.....	778
Xudayberganova Nargisa Qurbonbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati	782
Kursanova Marjona Baxtiyor qizi	
Sun'iy intellekt – bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari ta'limini modernizatsiya qilish vositasi sifatida	785
Yoqubaliyeva Dilafruz Payzidin qizi	
Tibbiy pedagogika: kasbiy ta'limda sog'lom turmush tarzi shakllantirishning psixopedagogik asoslari.....	788
Ziyatov Muhammad Namazovich	
Интерактивное обучение в развитии личности и критического мышления студентов	792
Рысова Галия Байбулатовна	

Значение искусственного интеллекта в области педагогики на основе мультимедийных приложений	795
Begaliyev Fayzali Umaraliyevich	
Favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tibbiy profilaktik ishlar	798
Mahmudov Otamurod Hoshimovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida haykaltaroshlik san'ati bilan korruptsiyaga qarshi boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish	802
Toshpulatova Fotima Saydullayevna	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari	805
Abdulvohidov Turg'unali Abduqaxxor o'g'li	
Zamonaviy pedagogik jarayonlarda uzluksiz kasbiy rivojlanish va uning o'quvchilarning natijalariga ta'siri	808
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Tibbiyot ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	811
Amonova Madina Furkatovna	
Matematika fanini o'qitishda fanlararo integratsiya.....	814
Arabbayeva Zamiraxon Tadjibayevna	
PISA 2025 tadqiqotlariga doir tajriba sinov ishlari (O'zbekiston misolida).....	817
Doniyorov Muxiddin Normamatovich	
Maktabgacha ta'limning rivojlanish markazlarida ta'lim-tarbiya jarayonida o'yinlardan foydalanish va tahlil qilish.....	820
Eshmuratova Gauxar Maxsudovna	
Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish	824
Matjanova Gulzada Annabayevna	
Al-Xorazmiy asarlari vositasida talabalarda analitik fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	828
Qaxxorova Shaxnoza Abduvasit qizi	
Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat tarbiyasini shakllantirish	832
Rahmonova Zamiraxon Yakubovna	
Jonli tabiat burchagini tashkil etish metodikasi.....	835
Yaylovboyeva Maftuna Lochinbek qizi	
Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda raqamli intellekt (DQ) va divergent fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish.....	838
Yusupova Xabiba Iriskulovna, Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi, Xusanova Dilraboixon Botiraliyevna	
Integratsiyalashgan ta'lim jarayonida yaratiladigan metodikalar va loyiha ishlari.....	843
Ergasheva Mahbuba	
Инновационные педагогические подходы в системе образования и их эффективность	846
Уринбаев Исроилжон Кадиrhoнович	
Pedagogik faoliyatda kasbiy stress va uni keltirib chiqaruvchi omillar.....	851
Boymirzayeva Nafisaxon Baxodir qizi	
Talabalarda milliy tarbiya va axloqiy immunitet tushunchalarini rivojlantirishning milliy-tarixiy kontekstual jihatlari	855
Rasulov Baxtiyor Maxmudjonovich, Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna	
TRIZ texnologiyasi – uchinchi renessans poydevori	860
Yusupova Gulshiraxon Zinatdinovna	
Yoshlar mafkurasini shakllantirishda hozirgi zamon ijtimoiy tarmoq va raqamli platformalarning o'rni.....	865
Xonimov Sharofiddin Bahodirovich	
O'zbek tilini o'qitishda raqamli ta'lim resurslarining o'rni va xususiyatlari.....	870
Ashurbayeva Rukiya Kaxxarovna	
Xiva xonligining tashqi savdo aloqalari tarixidan	874
Abduraimova Charos Nodir qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarini boshqaruv madaniyatini shakllantirish omillari.....	878
Abduraxmonova Xurshida G'ofurovna	
Gandbol sport turini umumiy o'rta ta'lim maktablarida rivojlantirish.....	881
Ahmadjonov Dilmurod Davronjon o'g'li, Abduraxmonov Saydillo Xakimovich	
PIRLS xalqaro tadqiqotida matn, topshiriqlar va baholash mezonlari	884
Amonova Aziza Saydulloyevna	



Tibbiyot ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	888
<i>Amonova Madina Furkatovna</i>	
Morfonologiya va uni umumiy ta'lim tizimida o'qitish	891
<i>Asatullayeva Dilnavoz Jondullayevna</i>	
Biologiya darslarida lokal darajadagi texnologiyalardan foydalanish metodikasi	894
<i>Azimov Ibragimjon Toshpo'latovich, Mirzaboev Timur Bisenboy o'g'li, Toshpo'latova Nigina Ibrohimjon qizi</i>	
Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining shakllari va umumiy tuzilishi	898
<i>B. R. Xudoyberdiyev</i>	
Cognitive Justification of Humor in Modern Linguistics	901
<i>Bektoshev Mubashirkhon Odilbek Ugli</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish	905
<i>Botirova Lobar Kamolovna</i>	
Toshkent viloyatida rekreasion faoliyat rivojlanishining asosiy muammolari	910
<i>Djurayeva Lobar Vaxitovna</i>	
Didactic Features of Using E-Portfolios in Continuing Professional Development of Teachers	915
<i>Erkaboyeva Saodathon</i>	
O'quvchilar xulqida yuzaga keladigan salbiy o'zgarishlarning korreksiyalashga xizmat qiladigan manbalar	918
<i>F. A. Choriyeva</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida chet tilida lug'at boyligini oshirishning samarali usullari	921
<i>G'ulomjonova Mubdi'ma G'ayratjon qizi</i>	
Kitobxon badiiy adabiyotni qanday anglaydi	924
<i>Hamdamova Dilshoda Rustamjon qizi</i>	
Zamonaviy ta'limda talabalarda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik asoslari	928
<i>Ibragimova Dilnoza Rashid qizi</i>	
The Pedagogical Role of the Community in Promoting Abilities of Students	931
<i>Isabayeva Dिल्фуza Komiljonovna</i>	
Ta'lim sifatini oliy ta'lim tashkilotlarida yaxshilashda til bilishning o'rni	934
<i>Isaqulova Baxtigul Xo'jamovna</i>	
Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda ingliz tili darslarida interaktiv media vositalarining ta'siri	938
<i>Ismoilova Zarifa Abduqaxxorovna</i>	
O'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish metodikasi	942
<i>Jabborova Shahodat Ibrohim qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida deontologik qadriyatlar va professional etikani rivojlantirish	945
<i>Kalandarova Fazilat Toxirovna</i>	
Voleybolda maxsus chidamlilikni rivojlantirishning umumiy tushunchalari	948
<i>Karimova Gulhayo Botirjon qizi</i>	
The Portrait of the Image of Manfred in the Translation of J.G. Byron's Poem "Manfred"	953
<i>Kurbonov Parda Akhmedovich</i>	
Suv aralashmasi temperaturasini aniqlash	958
<i>Mamatova Go'zaloy Jo'ramirzayevna, Mashrabboyeva Mubina Bobomurod qizi, Abdurahmonova Gulasal Avazbek qizi</i>	
Yosh bokschilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish yo'llari	961
<i>Mamatqulov Xusanboy Baxtiyor o'g'li</i>	
Maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda asosiy ustun amaliyotlar va O'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlari	965
<i>Mamura Tadjibayeva</i>	
Adabiy ta'limda scamper metodining qo'llanilishi	969
<i>Marjona Toshpulatova</i>	
Maktabgacha ta'limda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda matematika va savod asoslarining didaktik yechimlari	974
<i>Mingboyeva Guldorxon Maxmudovna</i>	
Umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni joriy etishning dolzarb muammolari va mavjud imkoniyatlari ..	977
<i>Mo'minova Qunduz Xolmamat qizi</i>	
"Jasper Jones" as New Life Given to The Novel "To Kill a Mockingbird"	982
<i>Nargiza Akhrorova</i>	

Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari	985
<i>Oqnazarov To'liqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon</i>	
Matematika darslarida kombinatorika elementlari va mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish metodikasi ..	990
<i>Panjiyeva Shahlo Zulfikar qizi</i>	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilari lisoniy-muloqot kompetentligini rivojlantirishga qo'yiladigan didaktik talablar.....	993
<i>Raximova Charosxon Baxromjon qizi</i>	
Kurash texnikasi va taktikasini bolalarga o'rgatish yo'llari	996
<i>Raxmonov Dilmurod Nusratovich</i>	
Pedagogical Technologies in Modern Education: Trends and Applications.....	999
<i>Salimova Bakhora Khurbanovna</i>	
Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari.....	1003
<i>Sanaqulov Sardor Istamqulovich</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlari mavzusini o'rgatishda qiziqarli o'yinlardan foydalanish.....	1006
<i>Shomurotova Sevinchoy San'at qizi</i>	
Kredit-modul tizimida texnologik fanlar o'qituvchilarini tayyorlashda raqamli avtomatlashtirilgan o'quv modullari yaratish imkoniyatlari	1009
<i>Turdikulova Sevara Abdumuminovna</i>	
Tyutorlik faoliyatining zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati va murabbiylik an'analarning uzviyligi	1012
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
O'zbekistonda til ta'limida innovatsiyalar: sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yondashuvi	1016
<i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi</i>	
Pedagogical Situation of Developing Students' Critical Thinking	1020
<i>Usmonova Oydin Sherali kizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik texnikani rivojlantirishning didaktik omillari	1024
<i>Xolmo'minova Bahora Abduljalolovna</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishga qo'yiladigan didaktik tamoyillar ..	1027
<i>Xurshidjon Raximov Xursandjon o'g'li</i>	
O'zbekistonda steam ta'lim tizimini tatbiq etishning nazariy aspektlari	1031
<i>Yaxshiboyeva Sitara Toshpulat qizi</i>	
Oliy ta'limda talabalar ijodiy salohiyatini shakllantirishda pedagogik innovatsiyalarning o'rni va imkoniyatlari	1034
<i>Yuldashev Abdurauf Ro'zmatjonovich</i>	
Talabalarda nutqiy faoliyatni rivojlantirishga doir olib borilayotgan ishlarning joriy holati	1037
<i>Yusufova Gulhayo Nosirxon qizi</i>	
Ingliz tili fanini o'qitishda (PBL) loyiha va muammoga asoslangan metodika: O'zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyot	1040
<i>Zarina Tasheva Djumayevna</i>	
Актуальные проблемы изучения русского языка	1043
<i>Абдуллаева Нигора Курбановна</i>	
Применение цифровых средств обучения в курсе "Окружающий мир" для изучения народной экологии в начальной школе	1046
<i>Бобаева Зиёдахон Махамаджон кизи</i>	
Tasviriy san'at darslarini o'qitishga innovatsion yondashuv.....	1049
<i>N. P. Kaipov</i>	
Важность разработки стратегических программ развития страны.....	1052
<i>Каримова Нуржахон Олим кизи</i>	
Pedagog kadrlar kasbiy kompetentligi diagnostikasining kvalimetrik texnologiyalari	1056
<i>Mirsoliyeva Muhabbatxon To'xtasinovna</i>	
Анализ элективных курсов по информатике в зарубежных странах и их аналогов в системе образования Узбекистана	1060
<i>Урынбаева Азада Бахадировна</i>	
Multimedia texnologiyalarining ta'lim tizimiga integratsiyasi.....	1064
<i>Raximova Dilfuza Abduraxmonovna</i>	



ADABIY TA'LIMDA SCAMPER METODINING QO'LLANILISHI



Marjona Toshpulatova

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU

mustaqil izlanuvchisi, Alfraganus universiteti o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0000-6062-8092>

Annotatsiya: Maqolada adabiyot darslarida SCAMPER metodining qo'llanilishi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Ushbu metod ijodiy fikrlashni rivojlantirishda qo'l keladi. O'quvchilar turli yondashuvlar orqali muammolarni yechish usullarini o'rganadilar.

Kalit so'zlar: Bob Ebesle, SCAMPER, kreativ, texnologiya, interfaol, tanqidiy, tasavvur.

Abstract: The article discusses the application of the SCAMPER method in literature lessons. This method helps to develop creative thinking. Students learn to solve problems in various ways.

Key words: Bob Ebesle, SCAMPER, creative, technological, interactive, critical, imaginary.

Аннотация: В статье рассматривается применение метода SCAMPER на уроках литературы. Данный метод способствует развитию творческого мышления. Ученики изучают способы решения проблем с использованием различных подходов.

Ключевые слова: Боб Эбесле, SCAMPER, креативность, технология, интерактивность, критическое мышление, воображение.

KIRISH

Yurtimizda ta'limni rivojlantirish borasida bir qancha amaliy ishlar olib borilmoqda. Bugunning iste'dodlarini kashf qilish, ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali usul va yondashuvlar amaliyotga joriy qilinmoqda. Xususan, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish maqsadida noan'anaviy, kreativ uslublardan foydalangan holda qiziqarli, jonli darslar tashkil etilmoqda. Bugungi globallashuv davrida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ta'limning ustuvor vazifalaridan biridir. Shunday ekan, yosh avlodni zamonaviy bilimlarga ega, tashabbuskor va salohiyatli shaxs sifatida tarbiyalash har qachongidan ko'ra muhimdir. O'quvchining iste'dodini aniqlash hamda to'g'ri yo'naltirish zamonaviy ta'limning asosiy vazifasidir. Biroq uni aniqlash, rivojlantirish va yuzaga chiqarish uchun o'ziga xos yondashuv hamda innovatsion texnologiyalar talab qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu maqolada umumta'lim bosqichlarida adabiyot fanini o'qitishda SCAMPER metodini tavsiya etamiz. Bu metod amerikalik pedagog olim Bob Ebesle tomonidan kashf qilingan. Olim ijodiy fikrlash va muammolarni yechish metodikasi bo'yicha izlanishlar olib borgan ^[1]. Ushbu uslub nafaqat ta'limda, balki boshqa (iqtisodiy) sohalarda ham faol qo'llanilishi bilan xarakterlanadi. Maqsad – o'quv jarayonini yuqori bosqichga ko'tarish hamda o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, ijodiy yondashuvini shakllantirishdir. SCAMPER so'zi quyidagi so'zlarning bosh harflaridan tashkil topgan:

- Substitute (almashtirish);
- Combine (birlashtirish);
- Adapt (moslashtirish);
- Modify (o'zgartirish);
- Put to another use (boshqa maqsadda foydalanish);
- Eliminate (chiqarib tashlash);
- Reverse (teskarisiga o'zgartirish) ^[2].



TADQIQOT METODOLOGIYASI

SCAMPER metodini dars jarayonida qo'llash yo'l-yo'riqlarini Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni misolida batafsil yoritamiz. Umumta'lim bosqichlarida dostonni o'qitish uchun 10 soat ajratilgan. Ushbu soatlarda SCAMPERdan kengroq foydalanish mumkin. Metod bir necha usullarni o'zida qamrab olgan bo'lib, ular quyidagi bosqichlardan iborat:

Almashtirish. Bu usul ta'limda ma'lumot yoki biror belgining o'rniga boshqasini o'quv jarayonida qo'llashni anglatadi. O'quvchilarga turli xil materiallar yoki usul va yondashuvlarni almashtirish taklif qilinadi. Ya'ni bir xillikdan qochish – rang-baranglik demakdir. Masalan: konseptual savollarni mantiqiy savollarga, ochiq testlarni yopiq testlarga almashtirish; yozma mashqlarni og'zaki, didaktik, rolli o'yinlarga almashtirib bajarish; kitobni ba'zan elektron tarzda o'qish yoki audiosini tinglash; darslarni sinfxonada emas, kutubxonada yoki tabiat qo'ynida tashkillashtirish; an'anaviy usullarni no'an'anaviy tarzda qo'llash; adabiyot darslarida asar voqealarini boshqa joyda yoki zamonda tasavvur qilish; asar xulosasini boshqasi bilan almashtirish; o'rganilayotgan asar (lirik, epik, dramatik) qahramonini boshqasiga almashtirish; asar syujetini o'zgartirish orqali asar g'oyasini qayta ishlash.

Topshiriq. Ushbu baytlarni hozirgi o'zbek adabiy tiliga nasriy tadbir qiling:

Ko'ringach ul jamoli olamaro,
Onung matlubi bo'ldi oshkoro.
Hamul erdiki maftun bo'lmish erdi,
Ko'rib ko'zguda majnun bo'lmish erdi.
Birovki aks ko'rgach hushi ketsa,
O'zin ko'rgach ne tong, jon tarkin etsa.

(*"Farhod va Shirin"*, 274-bet)

Nasriy talqini: Dunyoni bezab turgan bu yuzni ko'rgan zahoti, Farhod qidirib yurgan go'zal aynan shu ekanligi ayon bo'ldi. Bu o'sha bir qarashda maftun etgan, ko'zguda ko'rib mahliyo bo'lingan go'zal edi. Agar kimdir faqat ko'zgudagi aksini ko'rib hushidan ketgan bo'lsa, o'zini ko'rib jon bergan bo'lsa, bu holatda ajablanadigan joy yo'q.

Topshiriq. Baytlarda qaysi qahramon tavsifi berilganligini aniqlang. Ushbu topshiriqni mazmunini saqlagan holda boshqasiga almashtiring.

1. Harimi iffat ichra shoh ul ermish, Sipehr ismat uzra moh ul ermish. Yuzi gul, kiprigi derlar tikandur, Ne bor andoqqi hargiz bor ekandur.	5. Ne surat yozg'ali topib chu dast ul, Jahonni aylabon suratparast ul. Jahon mulkin kezib kishvar-bakishvar, Hududi boxtardin to ba xovar.
2. Ki, bu kishvardakim rashki jinondur, Bukun ismatpanohe hukmrondur. Agarchi soya solmas boshig'a toj, Va lekin tojvarlardin olur boj.	6. Magar hadis qilib erdi havodis, Ajab shahzoda shah mulkiga voris. Sharar andoqqi, bo'lg'ay o'tqa farzand Bashoqdekkim, erur temurga parkand
3. Jahon mulkin tutib xayl-u sipohi, Madoyin mulki oning taxtgohi. Nasabda topibon Kisrog'a payvand, Qayu payvand, farzandig'a farzand.	7. Falakdek tab'i soyir, jismi sokin, Safar aylab, vale yo'q sayr mumkin. Sipehri hilm zotidin huvaydo, Shukuhi ilm ruxsorida paydo.
4. Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm, Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm. Bo'lub o'n yoshqa umrining mururi Yigirma yoshcha qaddu-u jism-u zo'ri.	8. Falak raxshin zabun aylab samandi, Zuhul qaddin nigun aylab kamandi. Tutub Chin-u Xito ahli musallam Ki, ish vaqti emas Farhoddin kam.

- A. Suqrot 7
- B. Xusrav 3
- C. Mehinbonu 2
- D. Shopur 5

- E. Bahrom 8
- H. Shirin 1
- F. Sheruya 6
- G. Farhod 4

Bu usul orqali o'quvchilarda:

1. Zamonaviy o'qitish jarayonlariga moslashish;
2. O'z qobiliyatini namoyon qilish;
3. Ijodiy salohiyatini oshirish;
4. Imkoniyatlarni baholay olish kabi ko'nikmalar shakllanadi.



TAHLIL VA NATIJALAR


Birlashtirish. Birlashtirish usuli adabiyot darslarini yanada qiziqarli va zavqli tashkil etish imkonini beradi. Amalda berilgan topshiriq asosida keyingi topshiriqni bajarish taklif etiladi. Epik tur (ertak, hikoya, masal, topishmoq)ni lirik tur bilan birlashtirib, kichik liroepik asar namunasi (she'riy masal, she'riy topishmoq)ni yaratish mumkin. Yuqoridagi ikki topshiriq birlashib, o'quvchining bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. O'qilgan asar yuzasidan turli savollar, audio va videolar dars jarayonida o'quvchiga taqdim etiladi. O'rganilayotgan muammo yoki tahlil qilinayotgan masala yuzasidan shaxsiy taassurot va tasavvurlarni ifoda etib, kichik esse yozish tavsiya etiladi. Kichik essenini yaratishda o'quvchilar mavzu g'oyalarini umumlashtirish, tizimlashtirish, turkumlashtirish va xulosalarni bayon etish imkoniga ega bo'ladi.

- O'qituvchi kichik essenini yaratish uchun muammo yoki masalani tanlaydi.
- O'qituvchi tanlangan muammo bilan o'quvchilarni tanishtiradi.
- O'quvchilar muammoning umumiy mohiyati yuzasidan fikr yuritadi.
- O'quvchilar shaxsiy fikrlarini bayon etish usulini belgilab oladi.
- Har bir o'quvchi kichik essenini yaratadi.
- Kichik esse sinf jamoasining e'tiboriga havola etiladi.
- Sinf jamoasi a'zolari esse yuzasidan o'z fikrlarini bildiradi.

Moslashtirish. Obyektning ehtiyojga ko'ra ayni turgan holatidan boshqa bir yangi sharoitga moslashtirish. Adabiy asarlarni o'rganish jarayonida qahramonning sarguzashtlarini tasavvurimizda tamoman o'zga zamon yoki makonda jonlantirish mumkin. Asar qahramonini bugungi muhitga moslashtirish tushuniladi.

Topshiriqlar:

1. Tasavvur qiling, Farhod siz bilan bir davrda yashaganda qanday zamonaviy kasblarni egallagan bo'lardi? Bu topshiriqni quyidagi jadval asosida bajarishni tavsiya etish mumkin.



Farhodning ariq qazib suv chiqarishini bugungi davrga moslashtiradigan bo'lsak, jarayon qanday kechardi? Dostondagi temir odamni bugungi davrga moslang.

Asardagi muammolarni bugungi davr ijtimoiy muammolariga moslashtiring. Farqli jihatlarni aniqlang.

Ushbu savollar asosida dars jarayonida bahs-munozara tashkil etish joiz. Lug'at ustida ishlash daqiqalarida doston tarkibidagi notanish so'zlar va ularning hozirgi o'zbek tilidagi variantlari bilan "Moslashtiring" topshirig'i bajariladi.

O'zgartirish. Amalda qo'llanilayotgan narsa (jadval, misol, g'oya, masala, mashq, topshiriq, matn)ni o'zgartirish imkoniyati beriladi. O'quvchilar o'z istak va tasavvurlariga ko'ra, o'qituvchining ko'magi va ko'rsatmalari asosida ularni qisqartirishi, kattalashtirishi, soddalashtirishi, davom ettirishi, bo'rttirishi yoki kengaytirishi mumkin. Adabiyot darslarida o'rganilayotgan






asarning syujeti, qahramonlar xarakteri, voqealar o'rne va personajlarni o'zgartirish tavsiya etiladi. Masalan, asarning biror qismini o'zgartirish. O'quvchi bu topshiriqni bajarish uchun avvalo asarni o'qishga kirishadi va uning tahlilini amalga oshiradi. O'zgartirish davomida izlanadi va ijodiy yondashadi. Bu esa o'z-o'zidan o'quvchida kreativlikni shakllantirib boradi. Namuna sifatida QR kod orqali dostonidan berilgan parchani o'zgartirib, sarguzashtbop fantastik bir hikoya holatiga keltirishlari tavsiya etiladi.

1. Matnni o'zgartiring. Ya'ni, matndagi g'oyalarni kengaytiring. Voqealar asrlar tuynugida sodir bo'lsin. Unda so'nggi texnologiyalar vositasida Farhod tilsim sirini ochish uchun nafaqat quruqlikda, balki suv ostida, samoda, o'zga sayyorada harakat qilsin. Dunyoni o'zgartirishga hissa qo'shayotgan, o'tmishda hissa qo'shgan qahramon shaxslar – podshohlar, sayyohlar, kashfiyotchilar, sportchilar, mashhur film va multfilm qahramonlari, o'zga sayyoraliklar obrazini ham kiritishingiz mumkin.
2. Tuzgan matningizni qismlarga ajrating.
3. Har bir qism uchun izoh sifatida rasm chizing.
4. Yaratgan matningizni yuqoridagi matn bilan qiyoslang. Qanday o'zgarishlar kiritganingizni, yangilik va g'oyangizni asoslang.

Boshqa maqsadda foydalanish. Asardagi g'oya va syujetni boshqa soha yoki mavzuga tatbiq etish. Ya'ni, doston matnidan radioeshittirish tayyorlash, klassik ashula yaratish, miniatura kabi go'zal san'at asarini irod qilish, kichik sahna ko'rinishi uchun ssenariy tayyorlab, rol ijro etish va boshqalar taklif qilinadi. Shuningdek, tarixiy memuar asarlardan tarix, geografiya, biologiya fanlarini o'rganishda foydalanish mumkin.

Chiqarib tashlash. Yanada sodda va samarali usullarni topish. Yozuvchining hayoti va ijodi bilan bog'liq matnlarni soddalashtirib o'rganish. Amaldagi 9-sinf adabiyot darsligida Alisher Navoiyning hayoti va ijodi bilan bog'liq ikki sahifadan oshiqroq ma'lumot berilgan. Uni qisqartirib quyidagi usulda o'rganish samaraliroq bo'ladi.



Teskarisiga o'zgartirish usulida asar voqealari va obrazlari qarama-qarshi yo'nalishda o'zgartirilib, tahlil qilinadi. Asarni oxiridan boshiga qarab hikoya qilish orqali voqealar zanjirining qanday mantiqiy rivojlanganligini tushunish mumkin. Qahramonlar xarakterini teskari tarzda tasavvur qilish va asar voqealariga ta'sirini, sabab-oqibat munosabatini tahlil qilish ham ushbu usulga xosdir. Ijodiy qahramonlarning kamchiliklarini, salbiy qahramonlarning esa ijobiy tomonlarini o'rganish mumkin. Masalan, Farhodning hayotini tahlikaga solgan kamchiliklarini, Xusravning shoh sifatidagi ijobiy fazilatlarini aniqlash va yozish kabi topshiriqlarni bajarish mumkin.

Bizga ma'lumki, Madoyin hukmdori Xusrav tarixiy shaxs bo'lib, VIII asrlarda Sosoniy podshohlaridan biri Xusrav Parvez hukmronlik qilgan. Quyida Xusrav Parvez davrida hukmronlik qilingan hududlarning xaritasi keltirilgan. Sizdan ushbu xaritaning teskarisini – ya'ni, bu hududlar bugungi kunda qaysi mamlakatlar tarkibiga kirishini aniqlash va ularning xaritasini tuzish so'raladi.



XULOSA

SCAMPER metodidan foydalanish bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mavjud bilimlarni qo'llash va o'zaro almashish imkoniyati tug'iladi. Bir mashg'ulot davomida turli usullarning almashib turishi doimo qiziqish uyg'otuvchi omil bo'lib kelgan. Adabiyot darslarida zamonaviy metodlardan foydalanish o'quvchilarning ichki imkoniyatlarini ochish va ijodkorlik qobiliyatini yuzaga chiqarishi bilan dolzarblik kasb etadi. Ayniqsa, "Farhod va Shirin" dostonini o'qitishda bosqichma-bosqich usullarni o'zida mujassamlashtirgan interfaol metodlarning qo'llanilishi asarni samarali o'zlashtirishga hamda o'quvchining darsga faol ishtirokini ta'minlashga yordam beradi. Hozirgi kunda zamonaviy metodlarning turlari xilma-xildir. Ularning har biri o'quvchida mantiqiy fikrlash, mustaqillik, kommunikativ qobiliyat, fikrni dalillash, tahlil va talqin ko'nikmalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Tamaddun. – T.: 2021. – B. 540.
2. Alisher Navoiy. Qomusiy lug'at, 1-jild. Sharq. – T.: 2016. – B. 536.
3. A. Madvaliyev. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston NMIU. – T.: 2020. – B. 608.
4. Hazratqulov M., Karimova A. SCAMPER texnikasi – o'quvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish asosi. // Metodist, 2024. – №6. – B. 18–28.
5. <https://ru.wikipedia.org>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.